

## Ahmad ibn Ismoil as-Somoniy



# Ahmad ibn Ismoil as-Somoniy

(? – 914)

(907-914)

Movarounnahrda hukmronlik qilgan **somoniylar** amiri. **Amiri shahid**. Uning davrida bir qancha qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi. Xususan amakisi **Is'hoq ibn Ahmad** Samarqandda, Ray va Seyiston hokimlari isyon ko'tardilar. Bu isyonlar shafqatsizlik bilan bostirildi. Ahmad uzoq vaqt hukmronlik qilmadi. Davlatni idora etishda arab tilini qayta tiklanishi ko'pgina mahalliy zodagon va Turk g'ulomlarining noroziligini uyg'otdi. 914 yilda u Turk g'ulomlari tomonidan o'ldirildi. Taxtga Ahmadning 8 yoshli o'g'li **Nasr ibn Ahmad** (914-943) o'tirdi. Saroyning ruxsati bilan davlat ishlarini vazir **Abdullo Jayhoni**y boshqargan.

2023-10-29 20:21:47